DOI 10.5281/zenodo.8402510

Nursulton Rayimov
Yangi asr universiteti Mahsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

TA'LIM TARBIYA JARAYONIGA PSIXOLOGIK MUHIT TA'SIRI

Annotatsiya: Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonini samarali olib borishda pedagog uchun muhim bo'lgan qobiliyatlar va ularni namoyon qilishda nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.
Tayanch so'z va tushunchalar: Ta'lim-tarbiya, Konstruktiv komponenti, kommunikativ komponenti, tashkilotchilik komponenti, pedagogik qobiliyat.
Аннотация:В статье представлена информация о способностях, которые важны для педагога для эффективного ведения образовательного процесса и на что следует обращать больше внимания при их проявлении.
Ключевые слова и понятия: Образование, конструктивный компонент, коммуникативныий компонент, организационный компонент, педагогические способности.
Abstrakt: The article provides information about the abilities that are important for a pedagogue in effectively conducting the educatuonalt process and what should be paid more attention to when demonstrating them.
Key words and consepts: Education, constructive component, communicative component, organizational component, pedagogical ability.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy qirralarini rivojlantirishga xizmat qiladigan yosh avlodni kamol toptirish uchun nihoyatda muhimdir. Yuqori ma'lumotli, madaniyatli hamda professional jihatdan yetuk shaxsgina iqtisodiy erkin bo'lishi, demokratik va tub iqtisodiy o'zgarishlarning ishonchli tayanchi bo'lishi mumkin. Ushbu haqiqatni tushunish xalqning ma'naviy va madaniy hayotini yaxshilash, ta'lim-tarbiyaning butun tizimini yangilash jarayonining zamirida yotishi darkor. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar ta'lim-tarbiyasida bo'ladigan kamchiliklarning asosiy sabablaridan biri o'qituvchining psixologiyasiga bog'liq. Lekin bunga ko'pincha e'tibor berilmaydi. Shuning uchun o'qituvchilar jamoasini psixologik nuqtai nazardan o'rganish, uni muvaffaqiyatli boshqarishning psixologik yo'llarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga egadir. Pedagogik jamoani muvaffaqiyatli boshqarish uchun jamoa tarkibini o'rganish, kamchiliklarini korreksiyalash va haqiqiy pedagogik jamoa sifatida shakllantirish lozim.

Pedagogik faoliyatning tuzilishi o'qituvchining o'ziga xosligi faqatgina uning har tomonlama pedagogik faoliyatidagi fazilatlari bilan bog'liqdir. O'qituvchi faoliyati o'zaro komponentlardan iborat. Pedagogik faoliyatning 3 komponenti farqlanadi: konstruktiv, kommunikativ va tashkilotchilik.

Konstruktiv komponenti. O'qituvchining ishida konstruktiv dars katta o'rin egallaydi, ya'ni sinfdan tashqari ishlar maktab dasturlari bilan bog'liq o'quv materiallarni ta'lim oluvchilar uchun turli metodik ishlanmasi va uni ta'lim oluvchilarga ifodasini qamrab olgan. Ushbu barcha ishlar dars konspekti tarkibida o'z ifodasini topadi, ya'ni: o'z faoliyatining tartibi va tizimi ta'lim oluvchilarning faoliyat tartibi va tizimi (yaxlit sinfni va alohida o'quvchilarni). Ayni vaqtda pedagogik faoliyatning ushbu komponenti maktab oldida turgan asosiy vazifasi o'sib kelayotgan avlodning faol fuqarolik holatida tarbiyalash o'qituvchi shaxsiga ma'lum bir talablarni qo'yadi. O'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga intilishi kerak, buning uchun esa u eng qiyin nazariy savollarni

https://wordlyknowledge.uz

oson o‘zlashtirilishi uchun o‘quv materialni tanlash va qayta ishlashi lozim. Birinchi navbatda ta’lim oluvchilarning faoliyati faol bo‘lmasa, chuqur bilim va o‘zlashtirish jarayoni amalga oshirilmaydi.

Tashkilotchilik komponenti. Pedagogik faoliyat strukturasida tashkilotchilik faoliyati ham muhim o‘ringa ega. Uni konstruktivdan ajratish qiyin bo‘lib, ular ajralmas yaxlitlikni tashkil qiladi. O‘qituvchi dars davomiyligini rejalashtirishda uning butun o‘quv va tarbiya jarayonini tashkillashtirishni bilishga bog‘liqdir. Faqatgina shunda o‘quvchilarni bilim bilan qurollashtirish mumkin. Tashkilotchilik komponentida 3 yo‘nalish mavjud: o‘z tabassumining ifodasi: darsdagi tashkilotchilik xulq-atvori; bolalarni faollashtirish tashabbusi, ularning bilish sohasini doimiy ravishda faollashtirish. Agar o‘qituvchi o‘z mahoratini tashkilotchilik faoliyatining birgina aspektida ifodalasa, masalan: o‘quv jarayonini yaxshi ifoda eta oldi, lekin bolalarni fikrlash faoliyatini faollashtira olmadi, bunda bilimlar o‘zlashtirmay balki dars ko‘ngil ochar harakterda bo‘ladi. Agar o‘qituvchi sinfni butunlay o‘zining tashkilotchilik xulq-atvor bilan qo‘lga olsa-yu, lekin o‘quvchilarga materiallarni, aniq ifoda etib bera olmay, materiallni ifoda etayotgan vaqtda o‘quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javobni aniqlashtirilgani oqibatida hali yuqoridagidek kamchilikni ya‘ni bilimlarni chuqur o‘zlashtirmaslik yuzaga keladi. Bu o‘quvchilarning muloqotiga, o‘yin va mehnat faoliyatini tashkilashtirishga ham bog‘liqdir. Bu borada M.G. Davletshin quyidagi mulohazani bildiradi: «O‘qish va bilish faoliyatidagi tashkilotchilik jarayoni albatta bir qator vazifalarni bajarishi kerak. Tashkilotchilik mahoratiga ega malakali o‘qituvchi avvalo ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirib, ularni yil boshidagi o‘qishlari III sinfga borib, jamoaga munosabatlarni shakllantirishga olib keladi. Ta’lim oluvchilarning yakka tartibdagi tashabbuskorlik faoliyati muhim bo‘lib, u jamoaning har bir a‘zosining ta’siri, ota-onalarning bolalarga ta’siri, yuqori sinf sardorining sinf tadbirlari sardoriga ta’sirida ifodalanadi».

Kommunikativ komponent. U o‘z ichiga o‘quvchilar bilan, ota-onalar bilan, ota-onalar bilan ma’muriyat bilan, o‘qituvchilar bilan munosabatlarini oladi. Aynan o‘qituvchining o‘quvchi bilan munosabatida tashkilotchilik va konstruktiv faoliyatidagi yutuqlarini va ta’lim jarayoniga nisbatan o‘quvchilarda emosional birdamlikni hosil qiladi. Shuning uchun o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat boshlang‘ich sinflarda asosiy diqqatni ta’lim oluvchilarga qaratiladi. O‘quvchilar o‘qish boshida o‘qituvchining bilimini yoki uning darsini tashkillashtirish emas, balki uning mehribonligini, e’tiborligini, kuchli emotsionalligini baholashadi. Bu esa kichik yoshdagi o‘quvchilarda bu munosabatlar katta taassurot qoldiradi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarga o‘qituvchining kommunikativ sifatlari ta’siri shunchalik yuqoriki, u jamoa sinfida yuzaga keladigan ko‘pgina munosabatlarni aniqlash usulidir. O‘qituvchilarning ta’lim oluvchilarga nisbatan 5 xil emmosional munosabatni o‘z ichiga oladi: ijobiy emosionallikning sustligi, salbiy emosionallikning aktivligi, salbiy emosionallikning sustligi va har xilligi. O‘qituvchidagi emosional xilma-xillik o‘quvchilarga nisbatan shubhali va salbiy yo‘naltirilgan bo‘ladi, bu sentimental va o‘quvchilarni asossiz kengaytiradi, bu esa sinfda bir-biriga nisbatan asabiy va notekis munosabatlarni keltirib chiqaradi. Pedagogik faoliyatning kommunikativ tomoni barcha pedagogik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Darsda yangi materialni tushuntirishda o‘qituvchining emotsional holati o‘quvchilarda bilimni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi. Yakka tartibdagi yondoshuv insonning kommunikativ faoliyatining bir tomoni bo‘lib uning ishdagi yutug‘ini belgilab beradi. O‘qituvchi o‘quvchidagi o‘ziga xos xususiyatlarini sezishi va bilishi kerak, unga nima yordam beradi-yu, nima xalaqit qiladi. O‘quvchining sustligi uning temperamenti bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchidan takt va sabr-bardoshlikni va anatomo-fiziologik xususiyatlarning o‘ziga xosligi, nutqdagi kamchiliklar mavjud bo‘lgan o‘quvchilarga alohida e‘tiborni talab

https://wordlyknowledge.uz

etadi. O‘quv faoliyatidagi har bir dars jarayonining bosqichi va ayniqsa so‘roq o‘tkazilishida oldindan o‘ylangan rejalashtirilgan muloqot imkoniyatlarini talab qiladi. Gapni bo‘lmay tinglashni bilish, o‘z vaqtida yuzaga kelgan savolni berish, javobni haqqoniy baholash, ta’lim oluvchilarga subyektiv munosabatda bo‘lmaslik, pedagog shaxsining o‘quvchiga nisbatan ijobiy ta’sirini belgilab beradi. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, boshlang‘ich sinfda o‘qituvchining faoliyatida konstruktiv va tashkilotchilik komponentlari emas, balki kommunikativ komponentlari muhim ahamiyatga ega. Bu esa o‘qituvchida o‘quvchilarga nisbatan ijobiy yoki salbiy stereotiplarni munosabatlarini keltirib chiqarib, bu o‘qituvchida xulq-atvorini o‘zgartirish va analiz qilishni talab qiladi.

Sherbakov yuqorida sanab o‘tilgan komponentlardan tashqari, pedagogik faoliyatning quyidagi to‘ldiruvchi tomonlarini ochib bergan. Bu «…axborotli (materialga ega bo‘lish va uni mahoratini yetkazish); rivojlantiruvchi (o‘quv shaxsining yaxlit holda rivojlanishiga yo‘naltirish); harakatlantiruvchi (ta’lim oluvchilarga aqliy faoliyatlarini faollashtirish va ularni mustaqilligini rivojlantirish mo‘ljallangan (shaxsni motiv va ideallariga yo‘naltirish); izlanuvchan (pedagogik jarayondagi ijodiy izlanishlar), o‘z malakasini oshirish va o‘z mahoratini joimiy ravishda takomillashtirish». Pedagog kasbi uchun shaxsiy xususiyatlar ko‘lami juda muhim hisoblanib, o‘qituvchida pedagogik faoliyatida va xuddi shu vaqtning o‘zida uning yutuqlarini ta‘minlashda anglash va faoliyat yuritish birligi shakllangan bo‘lishi kerak. Pedagogik faoliyat motivlari. Ko‘pgina motivlar orasidan o‘qituvchi shaxsi uchun bosh motiv sifatida kasbiy motiv hisoblanadi. O‘qituvchining kasbiy motivi har qanday motivasiya singari murakkab tuzilishiga egadir. Uning tarkibiga pedagog kasbni tanlash motivi, o‘qituvchining mehnat faoliyatida vujudga keladigan motivlar, pedagogik faoliyatni mukammallashtiruvchi motivlar kiradi. Shubhasiz, mazkur motivlar negizida: jamiyat oldidagi burchi, vatanparvarlik kabi keng ijtimoiy ustanovkalar yotadi. Aynan bu hissiyotlar barcha motivlarni va faoliyatni belgilaydi. Ammo pedagogik mehnat jarayonida mazkur ijtimoiy ustanovkalarni aniq faoliyatga jalb qilish motivlari bilan mustahkamlanadi. Shuning uchun ham o‘qituvchilar ushbu motivga asosiy e‘tiborini qaratmog‘i lozim. Pedagog kasbni tanlash motiv tarkibiga bolalar bilan ishlashga bo‘lgan qiziqish, tashabbuskorlik qobiliyat, taqlid (sevimli o‘qituvchiga nisbatan), bolalarni tekshirish ishlari va boshqalar kiradi. Pedagog kasbni tanlash motivi va pedagogik faoliyat jarayonida paydo bo‘ladigan motiv ko‘pgina xollarda bir-biriga mos keladi. Masalan: pedagogik kollej va institutlarda o‘qib yurgan kezlarda ham o‘qituvchining barcha ishlariga bo‘lgan tortishi yanada faollashadi. Bunga bolalarga bo‘lgan qiziqish (yoki ko‘pgina o‘qituvchilar aytishicha bolalarni yaxshi ko‘rish), o‘qituvchi mehnatining jamiyatda muhimligi, pedagogik qobiliyatlarning bo‘lishi (masalan, darsning ijobiy tashkil etilishi) kabilar kiradi. Qolgan motivlar o‘qituvchilik ishini boshlashdan oldin joy egallab (masalan: yuqori sinflarda sevimli o‘qituvchiga taqlid qilishi aniq faoliyatga nisbatan yangi ma‘lumotlar yig‘ilib yuqoridagi xislatlarga qo‘shilib ketadi.

Pedagogik qobiliyat. Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, o‘qituvchining shaxsida shaxsiy xislatlar va bilim, malaka, ko‘nikmalar sintezi paydo bo‘lar ekan. Shuning uchun ham har bir pedagog o‘zining psixik xususiyatlarni chuqur anglashi natijasida o‘zining tarbiyasi bilan shug‘ulanishga olib keladi. O‘sib kelayotgan avlodni ta’lim-tarbiyasining muvaffaqiyati birinchi navbatda quyidagi xususiyatlarga, ya‘ni mustaqillik ruhini ongiga singdirish, ma‘naviy xislatlar va erkin emosionallikni shakllantirish va pedagogik yo‘naltirish tanlangan kasbga nisbatan muhabbat va sadoqatni uyg‘otish kabilarga bog‘liqdir. O‘qituvchi faoliyati uchun hamda boshqa turdagi faoliyat mutaxassislari uchun diqqatning barqarorligi, mustaqil fikrlash, dadillik kabi umumiy qobiliyat muhim ahamiyatga ega. Biroq boshqa turdagi sohalarda ham pedagogik faoliyatda haqiqiy muvaffaqiyat bo‘lishi

https://wordlyknowledge.uz

pedagogik qobiliyatning rivojlanishiga bog‘liqdir. Mazkur faoliyat orqali individual psixik xususiyatlarni muvaffaqiyatni egallanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni /Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: “Sharq”nashriyot-matbaa konserni, 1998y.
2. Abdullaeva Sh.A. Pedagogika.-Toshkent:Fan, 2011.-178b.
3. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. O’quv qo’llanma – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010y.
4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: Pedagog, 2004.
5. G‘oziev E. Yosh davrlari psixologiyasi.- Toshkent: O‘qituvchi, 2009.
6. M.E.Zufarova Umumiy psixologiya. - Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz